

O‘ZBEKISTON–YOSHLAR MAMLAKATI

Qilichova Iymona Poyon qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalari universiteti “Xalqaro munosabatlar” fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma‘lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e‘tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yoshlar har bir davlatning kelajagini, salohiyatini belgilovchi muhim ijtimoiy qatlam sanaladi. Zero, har bir jamiyatning holati, taqdiri va istiqboli unda yashayotgan yoshlarning salmog‘i, ma‘naviyati va ongilligi darajasi bilan belgilanadi. Yoshlar jamiyatning ertangi kelajagi, uning faol a‘zosi, ta‘bir joiz bo‘lsa jamiyat ertasining munosib vorislaridir. Mazkur nuqtai nazarga ko‘ra ham yoshlar davlat va jamiyat tomonidan doimiy e‘tiborda.

Tayanch so‘zlar

Yoshlar, kelajak, bunyodkorlik, tarix, komil inson, siyosiy barqarorlik, Prezident va yoshlar, davlat siyosati, milliy g‘oya, dunyo hamjamiyati, huquqiy savodxonlik, manaviyat, manaviy jasorat, maqsad, yosh avlod, kitobxonlik, yuksak marifat, ajdodlar.

Yoshlar – har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma‘noda, O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini hisoblanadi. Zero, yangi O‘zbekiston yoshlari – kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida kuzatilayotgan tartibsizliklar zahirida davlatning o‘tib-olib kelayotgan yoshlarga, ularning hayotdagi qiziqishlari, huquq va manfaatlariga e‘tiborsizligi, ulardagi yoshlarga oid siyosatning hozirgi zamonning yangi tahdidlariga javob bera olmasligi oqibatini ko‘rish mumkin. Bunday mamlakatlarda davlat va yoshlar o‘rtasida uzilish paydo bo‘lganligini kuzatish mumkin. Shu bois, yoshlarning ta‘lim-tarbiyasini samarali tashkil qilish, ularni bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishiga zamin yaratish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta‘lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oyani ilgari surgani bejiz emas. Zotan, yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlagan marralarga albatta yetamiz”.

Shu nuqtayi nazardan bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Murojaatnomada bayon etilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta‘minlash uchun faol ish olib bormoqda. Xususan, ushbu tarixiy nutqdan so‘ng, parlament quyi palatasida Murojaatnoma mazmun-mohiyatiga va ahamiyatiga bag‘ishlangan bir qator tadbirlar o‘tkazildi.

Mamlakatimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi kunda ham o‘ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda.

Axir, yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo‘lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya’ni 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini ko‘z oldimizga keltirsak, juda katta e’tibor, g‘amxo‘rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko‘rsatiladigan e’tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O‘zbekiston mehnat resurslarining yarmidan- ko‘pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo‘ladi.

Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Sharq Uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi... Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlarini yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

Hattoki dunyo hamjamiyatida nigohidagi nutqda ham muhtaram Prezidentimiz yoshlarga oida davlat siyosatini olg‘a surdi!

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

BMT Bosh Assambleyasining

72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqqlaro terrorism va ekstremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i

yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat‘iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Yuqorida ko‘zlanayotgan islohotlar natijasida buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylardek kuchli bilimli yoshlar jamiyat va davlatni boshqarishda faol bo‘lishga tayyorlanadi. Mirzo Ulug‘bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyoringing donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatgani, O‘zbek xalqi ma‘naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatgan ulug‘ zot Alisher Navoiyning butun dunyoni lol qoldirgan asarlari va uning ijodi, Amir Temurni esa qanchadan qancha xalqlarni bir g‘oya ostida birlashtirganini bilamiz.

Vatanparvarlik insonning, eng avvallo, o‘z onasiga bo‘lgan mehr-muhabbati deb qarasaq, onasi esa bu Vatanidir. Shuning uchun hamki, bu tushuncha insonning Vataniga muhabbatini va uni asrab-avaylashga bo‘lgan intilishini anglatadi. Ota-bobolarimiz, ulug‘ ajdodlarimiz va allomalarimiz Vatanga sadoqatlarini, o‘z yurtlariga muhabbatlarini ifoda etish borasida tarixda ajoyib namunalarni bizga meros qoldirishgan. Masalan, ulardan biz ko‘proq Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abulays Samarqandiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o‘zlarining taxalluslarini kindik qonlari to‘kilgan yurt bilan bog‘laganlari, ularning nomini dunyoga ma‘lum-u mashhur qilganliklarini yaxshi anglaymiz. Ularning yozib qoldirgan boy merosini o‘qir ekansiz, benihoya qalbingizni vatanparvarlikka his-tuyg‘ularini his qilishga undaydi.

XULOSA

Yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e‘tibor, g‘amxo‘rlik mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning eng ustuvor yo‘nalishidir. Har bir sohada qo‘lga kiritilayotgan marralar, yutuqlar ana shu g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlashning yorqin ifodasidir. Vatan taqdiriga daxldor ekanligini his qilib yashash va berilayotgan imkoniyatlardan umumli foydalanish har bir O‘zbekiston farzandining muqaddas burchidir.

Ishonchim komilki, farzandlari doimo izlanish va intilishda bo‘lgan, yuksak marralarni ko‘zlab, oldinga qarab intiladigan xalq va davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga albatta yetadi. Chunki bunday harakatlar ertaga qudratli to‘lqinga

aylanib, hayotimizni bugun kechagidan, ertaga
bugungidan yaxshi va obod qilish, ongu
tafakkurimizni yuksaltirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi

Islom Karimov

Yuksak manaviyat yengilmas kuch